



# Nogironligi bor insonlarning O‘zbekiston havo yo‘llarida sayohat qilishi

| Illyustratsiya | Oson matn |
|---|---|
|  | Bu maqolada **O‘zbekiston havo yo‘llarida** sayohat qilishda sening huquq va imtiyozlaring haqida bilib olasan. |
|  | **O‘zbekiston havo yo‘llari** – bu O‘zbekiston samolyotlari. |
|  | **Sayohat qilish –** sen samolyot yoki poyezdda chet elga borishing, dam olishing va boshqalar. |

| | |
|---|---|
|  | Sen Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoki Xorazm viloyatida yashasang samolyotga 50 foizlik chegirma bilan chipta olish ishing mumkin. |
|  | Havo transporti kompaniyalari o‘zining imkoniyatidan kelib chiqib sen uchun **qo‘shimcha imtiyozlar** berishi mumkin. |
|  | “O‘zbekiston havo yo‘llari” ba’zi insonlarga **100 foizlik chegirma** berishi mumkin. |
|  | 100 foizlik chegirma beriladigan insonlar:<br>● urushda nogiron bo‘lgan insonlar<br>● urushda uchinchi guruh nogironi bo‘lgan insonlar<br>● urushda qatnashgan va ularga tenglashtirilgan insonlar<br>● urushda birinchi guruh nogironi bo‘lgan insonlar **bilan birga ketadigan kuzatuvchi.** |

| | |
|---|---|
|  | Sen 100 foizlik chegirma olishing uchun:<br>● nogironlik guvohnomang<br>● samolyot uchun berilgan ikkita talonni berishing kerak. |
|  | 100 foizlik chegirma uchun beriladigan talon senga:<br>● hozirgi yil va o‘tgan yil uchun<br>● hozirgi yil va keyingi yil uchun berilgan bo‘lishi kerak. |
|  | “O‘zbekiston havo yo‘llari” ba’zi insonlarga **50 foizlik chegirma** berishi mumkin. |
|  | 50 foizlik chegirma beriladigan insonlar:<br>● urushda nogiron bo‘lgan insonlar<br>● urushda uchinchi guruh nogironi bo‘lgan insonlar<br>● urushda qatnashgan va ularga tenglashtirilgan insonlar<br>● urushda birinchi guruh nogironi bo‘lgan inson bilan birga ketadigan kuzatuvchi |

| | |
|---|---|
|  | 50 foizlik chegirma uchun beriladigan talon senga:<br>● shu yil uchun berilgan bo‘lishi kerak. |
|  | Sen samolyotda uchishda imtiyozlardan foydalanmoqchi bo‘lsang havo yo‘llari kompaniyalarining chipta sotadigan kassasiga borishing kerak. |
|  | Chipta sotadigan kassaga borib:<br>● nogironlik hujjating<br>● taloningni berganingdan keyin imtiyozdan foydalanishing mumkin bo‘ladi. |
|  | Seni aeroport ishchilari samolyotgacha kuzatib qo‘yishlari kerak. |
|  | Sen aeroportda nogironlik aravachang va boshqa tibbiy narsalaringni bepul olib yurishing mumkin. |

| | |
|---|---|
|  | Havo yo‘llari kompaniyalari senga boshqa qulayliklarni ham taklif qiladi. |
|  | Havo yo‘llari kompaniyalari senga beradigan boshqa qulayliklar:<br>● sen ketadigan va yetib boradigan aeroportda seni kuzatib borish va yordam berish<br>● sen o‘zing harakatlana olmasang seni nogironlar aravachasida samolyotga olib chiqish va samolyotdan olib tushish<br>● samolyot o‘rindiqlariga seni joylashtirish<br>● senga samolyotda yostiq va pled berish<br>● barcha yo‘lovchilar samolyotdan tushganidan keyin, kuzatuvchilar seni kuzatib qo‘yishi<br>● sen yetib borgan aeroportda seni kutib olish. |
|  | Bu xizmatlar sen foydalanishing uchun uchish vaqtingdan 2 kun oldin havo yo‘llari kompaniyalarini ogohlantirishing kerak. |

| | |
|---|---|
|  | Ogohlantirish uchun chipta sotadigan kassaga murojaat qilishing kerak. |
|  | Sen havo yo‘llari kompaniyasining internet manzili orqali ham ogohlantirishing mumkin. |